

---

## FARG'ONALIKLAR 250 MING TONNA PAXTA XIRMONI YARATDI

### ***Farg'onalik paxtakorlar mamlakatimizda birinchi bo'lib, joriy yilgi paxta topshirish shartnomaviy rejani bajardi.***

Fermer xo'jaliklari tomonidan mo'l hosil yetishtirilib, 250 ming tonna paxta xirmoni bunyod etildi, uning aksariyat qismi yuqori navlarga sotildi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan paxtachilikda klaster tizimi joriy etilgani bugun o'z samarasini bermoqda. Viloyatning 9 ta tumanlarida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan mo'l hosil yetishtirilgani ham buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Joriy yilda 82 ming gektardan ziyod maydonda g'o'zaning "S-8290", "Namangan-77", "Sulton", "S-6524" navlari ekilib, agrotexnik tadbirlarga muhim e'tibor qaratildi. Paxtani qisqa muddatlarda sifatli qilib terib olish, terimga fermer xo'jaligi a'zolarini va ish bilan band bo'lmagan uyushmagan aholini ixtiyoriy jalb etish bo'yicha barcha zaruriy choralar ko'rildi.

Natijalar esa quvonarli. 15 ish kunida viloyatning Buvayda, Uchko'prik, Rishton tumanlari paxta sotish shartnomaviy rejasini respublikada birinchi bo'lib bajardilar. Shuningdek, Oltiariq, O'zbekiston, Toshloq, Bag'dod, Dang'ara tumanlari ham paxta xirmoniga munosib hissa qo'shishdi. Bugun boshqa tumanlar ham astoydil harakat qilishmoqda.

### **O'ZA**

2020-10-14 15:17:01